TA’LIM JARAYONIDA INTEGRALLASHGAN DASTURIY VOSITALARNING O‘RNI VA AHAMYATI

Ermonov Sherzod Ibrayim o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika institute Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Anotatsiya: Maqolada ta’lim jarayonida integrallashgan dasturiy vositalarning o‘rni, axamyati, imkoniyatlari va istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek integrallashgan dasturiy vositalardan foydalanish haqida ma’lumotlar berildi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, pedagogik dasturiy vostalar, integrallashgan dasturiy vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), masofaviy o‘qish, Openboard dasturi.

Ta’limning rivojlanish yo‘li fanlar sonining va o‘rganiladigan mavzularning ortishi hisobiga olinadigan bilimlar bilan kengayishi mumkin. Fanlar sonini kengaytirish, talabalarga yuklamalarni ko‘paytirish bilangina emas, balki o‘qituvchi-pedagoglarning o‘zlari ta’lim berayotgan fanlariga har tomonlama va zamonaviy axborot texnologiyalariga tayangan holda saboq berishlari uchun ularning malakalarini oshirib borish ham muhim omildir.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga yangidan-yangi pedagogik metodlar va texnologiyalar joriy etilmoqdaki, ular yordamida ta’lim jarayonlari sifati va samaradorligi ortib bormoqda. Bunday texnologiyalar qatoriga masofaviy ta’lim, ommaviy ochiq onlayn kurslar, veb konferensiyalar, onlayn seminarlar, virtual universitetlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Shunday ekan biz zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan bugungi kunning eng muhim innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalariga to‘xtalib o‘tamiz.

Pedagogik dasturiy vositalar–kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomotlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Pedagogik dasturiy vositalar zamonaviy o‘qitish vositasi bo‘lib, ularning tarkibiga o‘quv fani bo‘yicha aniqdidaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy ma’lumot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘shimcha va yordamchi vositalar kiradi.

Hozirgi kunda pedagogik dasturiy vositalarning quyidagi turlari keng tarqalgan.

1. O‘rgatuvchi dasturlar –o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarning faoliyatini boshqaruvchi amaliy dasturlardir. Muayyan bir fan materiallarini o‘zlashtirish jarayonida kompyuter texnologiyalari yordamida foydalanish uchun yaratiladi. O‘quv materiallari bosqichma-bosqich, mashq va topshiriqlar ketma-ketlikda taqdim qilinadi, javoblarning to‘g‘ri-noto‘g‘riligi tasdiqlanadi, yo‘l qo‘yilgan xatolar displeyda aks etadi, o‘quvchilarning o‘zlashtirilishi nazorat qilinadi va baholanadi.O‘rgatuvchi dasturlar -yangi materialni talabalar tomonidan o‘rganish, o‘zlashtirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ular maxsus dasturlar asosida ishlab chiqiladi. Masalan, Autoplay, Adobe Flash, Html, Javascript,

Micromedia, Dramveawer, Delphi, VisualBasic, C++ Builderba boshqa zamonaviy dasturlash tillari shular jumlasiga kiradi.

2. Test dasturlari -egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirishyoki baholash maqsadlarida Quiz creator, easyQuizzy, iSpring QuizMakerkabi universal test dasturlaridan keng foydalinishdir. Ushbu test dasturlari bir tanlovli, ko‘p tanlovli, qiyosiy, tartibli, sonli, muvofiqlikni aniqlash kabi imkoniyatlarga ega. Hozirgi kunda o‘quv jarayonida ko‘p hollarda o‘qituvchi tomonidan talabalarga berilayotgan joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari yuqoridagi test dasturlari asosida tashkil etilmoqda.


3. Mashq dasturlari –interfaol didaktik elektron o‘yinlar va mavzuga doir topqirlik mashqlari. Hozirgi kunda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarning o‘quv jarayonida turli xil ta’limiy dasturiy vositalarning imkoniyatidan keng foydalaniladi. Jumladan iSpring Suite, Hot Potatoes dasturi orqali topshiriqlar beriladi. iSpring Suite dasturining interfaol didaktik mashqlar yaratish imkoniyati keng bo‘lib, dastur orqali elektron kitob va lug‘at yaratish, nazorat uchun savollar taqdim etish mumkin. Har qanday fanni o‘rganish uchun esa Hot Potatoes dasturi orqali interfaol didaktik topshiriqlar yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Hot Potatoes dasturi JCloze, JQuiz, JCross, JMix, JMatch, The Masher kabi ilovalardan iborat bo‘lib, ushbu dastur asosida yaratilgan didaktik elektron topshiriqlar talabaning motivatsion faoliyatini va darsga qiziqishini oshiradi.

4. O‘qituvchi ishtirokidagi virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar. Pedagogika ta’limida mavjud bosma ta’lim vositalari (darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, jadvallar, daftarlar)ning virtual imitatsion modellarini yaratish (elektron darslik, elektron qo‘llanma, elektron jadvallar, elektron daftarlar), video va audio materiallarni tinglash, ko‘rish orqali fikrlashga, tahlil qilishga yo‘naltirish, real bo‘lmagan modellashtirilgan elektron daftarlarda interaktiv mashqlarni bajarish jarayoni virtual mavjudlik deb qaralishi mumkin.


Integrallashgan dasturiy vositalar (Inglizcha: Integrated Software Tools yoki Integrated Software Packages) deganda bir nechta funksional imkoniyatlarni bitta muhitda birlashtirgan, ya’ni bir nechta turdagi ishlarni bajarishga imkon beradigan yagona dasturiy vosita tushuniladi. Bu - matn yozish, jadval bilan ishlash, grafik chizish, ma’lumotlar bazasi bilan ishlash, taqdimot qilish va boshqa vazifalarni bitta dasturiy platformada bajarishga imkon beradigan tizimdir.

Integrallashgan dasturiy vositalardan biri sifatida biz OpenBoard dasturini olishimiz mumkun. Usbu dastur ko‘plab imkoniyatlarga ega bo‘lib, Dasturni o‘rnatish hamda ishlash jarayonini ko‘rib chiqamiz. Dastlab dasturni yuklab olish uchun http//openboard.ch havola orqali internet tarmog‘iga kirib olamiz. Hosil bo‘lgan oynada kompyuterimizni operatsion sistemasiga mos faylni yuklab olamiz hamda o‘rnatamiz. (1-rasm)

Yuklab olingan faylni o‘rnatganimizdan so‘ng dasturni ishga tushuramiz. Dastur ishga tushgandan so‘ng 2-rasmdagi holatda interfeysi ochiladi. Ushbu dastur orqali turli xil amallarni bajarishimiz mumkun.



1-rasm. Openboard sayti interfeysi



OpenBoard — bu bepul, ochiq manbali (open-source) interaktiv doska (interactive whiteboard) dasturi bo'lib, o'qituvchilar, talim muassasalari va taqdimot qiluvchilar uchun mo'ljallangan.

OpenBoard dasturining asosiy imkoniyatlari:

- **Interaktiv doska** – dars davomida yozish, chizish, diagrammalar tuzish mumkin.
- **Multimedia qo'llab-quvvatlashi** – rasm, video, audio fayllarni darsga joylash mumkin.
- **PDF eksport** – tayyor materiallarni PDF shaklida saqlash yoki ulashish mumkin.
- **Ko'p sahifali darslar** – darsni bir necha sahifalarda tashkil qilish imkoni bor.
- **Virtual klaviatura va o'lchov vositalari** – chizish, o'lchash, ko'rsatish uchun qulay vositalar.
- **Stylus yoki sensorli ekran mosligi** – grafik planshet yoki sensorli doskalar bilan ishlaydi.

- **Fayl va resurslar menejmenti** – resurslarni tashkil qilish oson.

Ushbu dasturdan ommaviy onlayn ochiq kurslarini tashkil etishda talabalarning mustaqil ta’limini tashkillashtirishda foydalanishni tashkil etish maqsadga muvofiq. OTM MOOC taqdim qilayotgan kurslardan foydalangan holda o‘quv rejasining tanlov fanlar blogini o‘qitishni tashkil qilishi mumkin. OTM MOOC taqdim qilayotgan kurslardan talabalarga fakultativ mashg‘ulotlar sifatida foydalanish mumkin. MOOC orqali ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish maqsadida ta’lim olgan talabalarning bilimini akkreditatsiyadan o‘tkazish mexanizmini yaratish va joriy etish mumkin. Bunday jarayonlarda integrallashgan dasturiy vositalar judayam qo‘l keladi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. Abduqodirov A., Pardaev A. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. -T.-“FAN” nashriyoti, 2009.-145 b.

2. Mhd. Zulfansyuri Siambaton, Muhammad Fakhriza. Aplikasi content management system (cms) pada joomla untuk membuat web service. Jurnal Nasional Informatika dan Technology Jaringan. -2016. -11 b.

3. Muhammad N. O ‘quv jarayonida raqamli ta’lim muhitidan foydalanishning samaradorligi // Research and Publications. – 2024. – T. 1. – №. 1. – S. 265-268.

4. A.Abduqodirov, A.X.Pardaev. Masofali o‘kitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009.

5. S.Yaremchuk. Sistema upravleniya obucheniem Claroline. // Sistemno‘y administrator, 7-iyul 2008. – S 82–85.